

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasining
2024-yil 1-apreldagi
21-sonli buyrug‘iga
7-ilova

**“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga
qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va
taqdim etish bo‘yicha
NIZOM**

1-bob. Umumiq qoidalar

1. Mazkur Nizom “Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi (keyingi o‘rinlarda – Inspeksiya) va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va korrupsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishi to‘g‘risidagi hisobdorlikni shakllantirish tartibini belgilaydi.

2. Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va rivojlanishi masalalari bo‘yicha hisobotlarni (keyingi o‘rinlarda – Hisobotlar) shakllantirish va taqdim etish uchun ma’suliyat Inspeksianing Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim (keyingi o‘rinlarda – Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim) zimmasida bo‘ladi.

Inspeksianing hududiy va tarkibiy bo‘linmalari hisobotni taqdim qilish uchun ma’suliyat hududiy va tarkibiy bo‘linmalardagi korrupsiyaga qarshi Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim (keyingi o‘rinlarda – Mas’ul xodim) zimmasida bo‘ladi.

2-bob. Hisobot turlari va uni tuzish davriyiligi

3. Inspeksiyada quyidagi hisobot turlari nazarda tutiladi:

a) Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi, shu jumladan, Inspeksianing korrupsiyaga qarshi Dasturi yoki yo‘l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishini bo‘yicha hisobot har chorakda Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim tomonidan mazkur Nizomning 3-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

b) Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturida rejorashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot har chorakda Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim tomonidan mazkur Nizomning 4-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

4. Hisobot muntazam ravishda ushbu Nizomda belgilangan tartibda va muddatlarda, Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatidan, shuningdek, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi tadbirlar o‘tkazilgan yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, tuziladi.

5. Yilning IV choragi uchun hisobot tuzilmaydi, uning o‘rniga yillik hisobot tayyorlanadi.

6. Har choraklik va har yillik hisobot Inspeksiya rahbariyatiga (Inspeksiya hay’atiga) topshiriladi.

Inspeksianing markaziy apparatidagi Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasidan kechiktirmay har choraklik Inspeksianing umumiy hisobotini O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) ko‘rib chiqishi uchun kiritib boradi.

7. Inspeksianing yillik hisobotidagi umumiy axborot Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi. Mazkur axborot Inspeksianing Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim tomonidan tayyorlanadi.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobotni shakllantirish tartibi

8. Inspeksiyada Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodimning faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi hisobot korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish, shuningdek, Inspeksianing korrupsiyaga qarshi Dastur yoki Yo‘l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishini monitoring qilish maqsadida tuziladi.

9. Hisobot har chorakda Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay tuziladi va Inspeksiya rahbariga (Inspeksiya hay’atiga) ko‘rib chiqish uchun topshiriladi.

10. Hisobotni shakllantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) hisobot davridan keyingi oyning 2-sanasidan kechiktirmay, Inspeksianing markaziy appartidagi Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim tuzilmasi Mas’ul xodimlarga ushbu oyning 10-sanasigacha tegishli rahbarlar tomonidan tasdiqlangan mazkur Nizomga 1-ilovaga muvofiq hisobot taqdim etishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi;

b) Inspeksianing markaziy apparati bo‘linmalarining hisoboti Inspeksianing markaziy apparatidagi Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim tomonidan tuziladi va Inspeksianing korruptsiyaga qarshi kurashish yunalishiga mas’ul bo‘lgan rahbar o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to‘g‘risidagi hisobotning biron-bir bo‘limi bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilmagan taqdirda, tadbirlar amalga oshirilmaganligi sababini ko‘rsatish lozim.

v) Hisobotlarga kiritilgan axborot tegishli hujjatlar nusxalari va boshqa ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi kerak;

g) Inspeksianing markaziy apparatidagi Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim ushbu Nizomga 2-ilovada ko‘rsatilgan shaklda Inspeksiya tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tizimning faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiylis hisobotni tuzadi hamda qo‘sishimcha ravishda unga ushbu Nizomga 1-ilovadagi shakl bo‘yicha Inspeksiya tizimi bo‘yicha tuzilgan hisobotdagi ma’lumotlarni kiritadi.

Hisobotda asosiy axborotni o‘zida aks ettirgan qisqacha ma’lumotnoma va takliflar bo‘lishi kerak. Yillik hisobot o‘z ichiga o‘tgan yilning xuddi shunday ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan solishtirma tahlilni ham qamrab olishi kerak.

11. Inspeksiya tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi hisobotlar va Inspeksiya tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiylis hisobotni tuzishda Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim teshishli bo‘linma xodimlaridan zarur hujjatlar, tushuntirish va statistikani so‘rash va olish huquqiga ega.

12. Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim qisqa ma’lumotnoma biriktirilgan korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiylis hisobotini hisobot davridan keyingi oyning 21-sanasigacha Inspeksiya rahbariga taqdim etadi.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashga oid davlat dasturlarida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish tartibi

13. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shaklda tuziladi.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim tomonidan Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiy hisobot bilan bir vaqtda tuziladi.

15. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilgani to‘g‘risidagi hisobot rahbar tomonidan ko‘rib chiqilgandan keyin Agentlikka yuboriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

16. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Inspeksiyaning ichki idoraviy hujjatlarga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritilgan taqdirda ushbu Nizom qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Nizomga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritishga Inspeksiyaning markaziy apparatdagi Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodim mas’ul bo‘ladi.

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim
tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni
shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizomiga
1-ilova

Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobot

Inspeksiya nomi:	
Hisobotni tayyorlagan xodim (Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ma’sullar):	F.I.Sh., lavozimi, tuzilmasi
Hisobot davri:	
Hisobot tayyorlangan sana:	

Nº	Tadbir-lar guruhi-ning nomi	Tadbir-lar nomi	Bajarish muddati	Mas’ul ijrochi-lar	Ijro to‘g‘risida belgi	Ijro etilma-gan bo‘lsa, ijro etilishi kutilayot-gan muddat	Bajaril-ganlikni tasdiqlash, bajarilmagan bo‘lsa sabablari

Nº	Tadbir	Natijalar
I. Siyosatlar va protseduralar		
1	Ichki hujjatlarni moslashtirish	Inspeksiyada hisobot davri uchun moslashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo‘yicha choralar yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga oid tartib-taomillarga ega bo‘lgan ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va h.k.) ko‘rsatish zarur.
2	Xavf-xatarli vazifa va tartib-taomillar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar va choralar hamda korrupsiyaga	Hisobot davrida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga kiritilgan sohalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va

	qarshi masalalarini tartibga soluvchi ichki hujjatlarni ishlab chiqish.	sh.k.) ko'rsatish zarur.
--	---	--------------------------

II. Shaxsiy namuna

3	Inspeksiya rahbari va uning o'rinoslarining ichki tadbirlardagi chiqishlari (nutqi).	3–6-bandlarda Inspeksiya tizimi rahbarlari va ularning o'rinoslarining qonunchilik talablariga rioya qilish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish, tarkibiy bo'linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarga amal qilishning muhimligi to'g'risidagi pozitsiyasi, fikr mulohazalari ochiq e'tirof etilgan tadbirlarni ko'rsatish lozim.
4	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha ichki kommunikatsiyani tarqatish (Inspeksiya rahbari va uning o'rinoslarining nomidan).	
5	Inspeksiya rahbari va uning o'rinoslarining OAVdagi fikr-mulohazalari.	

III. Xavf-xatarlarni baholash

6	Inspeksiyada korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo'yicha har yillik baholash o'tkazish	Ha o'tkazilgan/yo'q o'tkazilmagan (sabablari ko'rsatiladi) / jarayonda (qaysi bosqichdaligi ko'rsatiladi)
7	Hisobot davri uchun Inspeksiyada ish jarayonda yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning darajalari (yuqori, o'rta, past).	Yangi korrupsiyaviy xavf-xatarlar qaysi jarayonlarda aniqlanganligi, ularning darajasi sanab o'tiladi. Qanday korrupsiyaviy xavf-xatarlar qayta baholandi, yangi daraja, bahoni o'zgartirish sabablari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha takliflar. Inspeksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ilova qilinadi.
8	Hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar	
9	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq tavakkal yuqori bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning foizdag'i nisbati ko'rsatiladi

10	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar o‘rtaliga undan past darajagacha kamaytirilgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar o‘rtaliga undan past darajagacha kamaytirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar umumiy soniga foizdagi nisbatini ko‘rsatish zarur.
----	--	--

IV. Korrupsiyaga qarshi amalga oshiriladigan tartib-taomillar

11	Inspeksiyada aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari va qabul qilingan choralar	Inspeksiyada aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining sonini ko‘rsatish yoki aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari reestrini ilova qilish zarur.
12	Xodimlar tomonidan har yili manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish.	Har yillik manfaatlar to‘qnashuvini deklaratasiyalash tartib-taomillaridan o‘tgan xodimlarning Inspeksiyadagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko‘rsatish zarur. Har yili manfaatlar to‘qnashuvi deklaratasiyasini amalga oshirishi shart bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini deklaratasiyalash tartib-taomillaridan o‘tgan xodimlarning Inspeksiyadagi umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko‘rsatish zarur.
13	Ishga olingan xodimlar va nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar soni.	Inspeksiyaga ishga qabul qilingan xodimlar sonini va Inspeksiyadagi lavozimga nomzodlar tekshiruvi sonini ko‘rsatish zarur. Tekshiruv o‘tkazilmagan bo‘lsa sababini ko‘rsatish zarur.
14	Hisobot davrida o‘tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari soni	Hisobot davrida o‘tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari sonini, tekshiruvlar natijalari bo‘yicha ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbatini ko‘rsatish zarur. Tekshiruv o‘tkazilmagan bo‘lsa sababini ko‘rsatish zarur.
15	Amalga oshiriladigan boshqa korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar	Mavjud bo‘lganda ushbu bo‘limda ko‘rsatilmagan boshqa amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi tadbirlarni ko‘rsatish.

V. Ta’lim va kommunikatsiya

16	Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglar o‘tkazish:	Treninglar turi va shakli, o‘qitilgan xodimlar soni, ularning lavozimlari darajasi va bo‘linmalarni ko‘rsatish.
----	--	---

	barcha xodimlar uchun; korrupsiyaviy tavakkallchilikka eng ko‘proq moyillik ehtimoli bo‘lgan vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar uchun.	
17	Inspeksiyaga yaqinda ishga olingan xodimlar uchun treninglar o‘tkazish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglardan (umumiy, tanishuv) o‘tgan yangi xodimlarni umumiy yangi xodimlar soniga foizlardagi nisbati treninglar mavzusi kesimida ko‘rsatish.
18	Xodimlarning korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va bo‘linmada amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi chorralardan xabardorligini oshirishga oid boshqa tadbirlar	Tadbir ishtirokchilarning maqsadli guruhini, ularni soni (imkonи bo‘lsa), mavzusi va turini (masalan, tanlovlар, viktorinalar, so‘rovnomalar va boshq. ko‘rsatiladi) va uning yakunlarini ko‘rsatish.
19	Korrupsiyaga qarshi kurash uchun ma’sullar tomonidan bajarilgan korrupsiyaga qarshi kurash me’yorlari mavzusida axborot-tarqatma materiallari.	Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga amal qilish zaruriyati to‘g‘risidagi, shu jumladan, ularning to‘g‘ri talqin qilinishi va ularga to‘g‘ri amal qilish to‘g‘risidagi xabarnoma va boshqa tarqatma materiallari.
20	Xodimlarning odob-axloq madaniyatini shakllantirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurash tizimi va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning talablari xaqida xabardor qilishning boshqa usullari.	Masalan, binolardagi axborot plakatlari va boshqa materiallari, skrinsvayerlar, ishchi kompyuterlar ekraniga qo‘yiladigan suratlar va boshqalar.
21	Fuqarolik jamiyati va bo‘linma kontragentlari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazish	Fuqarolik jamiyati vakillari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazishning soni, nomlanishi, mohiyati va natijalarini ko‘rsatish (masalan, korrupsiyaga qarshi kurash kuni, korrupsiyaga qarshi mavzudagi ishlar tanlovi). Shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qo‘gshimcha shartlar kiritilgan yangi kontragentlarning yangi kotragentlarning umumiy soniga foizlardagi nisbati.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakalar va qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar.
Ta’sir choralari

22	Xatti-harakatlar, shu jumladan, potensial xatti-harakatlar uchun aloqa kanallariga kelib tushgan xabarlar soni	Xabarlar sonini quyidagi ma'lumotlarni ham kiritgan holda ko'rsatish: kelib tushgan sanasi kelib tushgan aloqa kanali, xabar mavzusi, tegishli hisobotni ilova qilish.
23	Xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan; Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi to‘g‘risida tasdiqlangan holatlar (shu jumladan, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va maqolalar kesimida) aniqlangan; Bo‘linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlangan (shu jumladan, ichki hujjatlar kesimida); Aybdorlar aniqlangan holatlar soni.	Har bir band bo‘yicha holatlar sonini ko'rsatish.
24	Qabul qilingan ta’sir choralari.	Qanday korreksiyalash choralari, shu jumladan, intizomiy choralar, Korrupsiyaga karshi kurashish va komplayens nazorat bo‘yicha mas’ul xodimda qanday kamchiliklar aniqlandi va nazoratni kuchaytirish uchun qanday choralar taklif qilindi.

VII. Monitoring va nazorat

25	Hisobot davrida mavjud korrupsiyaga qarshi kurashish talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillar bajarilishi ustidan tekshiruvlar o‘tkazilganligi	Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha mas’ullar tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv tadbirlarini, shu jumladan, ularning sonini quyidagi kesimda ko‘rsatish Tekshiruv obyektlari (boshqarma, bo‘lim); Tekshiruv mavzusi (masadan, xaridlar, kadrlar); Tekshiruv tadbirlari turi (audit, tavakkal tranzaksiyalari monitoringi yoki protseduralari va boshq.); Tekshiruv tadbirlari xarakteri (rejali, rejadan tashqari).
26	Bo‘linmada belgilangan nazorat	Qaysi tartib-taomil yoki vazifani bajarishda

	tadbirlari va tartib-taomillar buzilish holatlari aniqlanganmi va ularga nisbatan qo'llanilgan ta'sir choralar?	qanday qoidabuzarliklar aniqlangan? Aniqlangan holatlar sonini ko'rsatish. Vazifa va tartib-taomillarni bajaruvchi shaxslar uchun qanday tavsiyalar tayyorlangan. Ular qanday rasmiylashtirilgan (masalan, buyruq yoki boshqa ichki hujatlar)?
--	---	--

Xulosalar: Hududiy va tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi choralarini amalga oshirishning asosiy natijalarini ko'rsatish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatiga umumiylaho berish, zaruriyat tug'ilganda avvalgi davrlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslama tahlil o'tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini ko'rsatish zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va korreksiyalovchi tadbirlar rejasidagi kelgusi hisobot davrida hisobdorlikning alohida elementlarini yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlarni ko'rsatish zarur.

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim
tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni
shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizomiga
2-ilova

**Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi
to‘g‘risida 2024-yil __chorak uchun
UMUMIY HISOBOT**

**I. Inspeksianing Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani
to‘g‘risida umumiy axborot¹**

Inspeksiya tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarning amalga oshirilgani to‘g‘risidagi qisqa ma’lumot, shu jumladan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirgan bo‘linmalar sonini ko‘rsatish zarur;

Hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida Korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarni amalga oshirmagan bo‘linmalar ko‘rsatiladi, shuningdek, hisobotga ilovada ularning nomi, amalga oshirilmagan tadbirlar va qisqacha-asosiy sabablarini alohida ko‘rsatish lozim.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sohalarni tartibga soluvchi, va hisobot davrida markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida tatbiq etilgan korrupsiyaga qarshi sohasiga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy va ichki hujjatlar (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar va shu kabilar)ni ko‘rsatish lozim.

III. Xavf-xatarlarni baholash²

Inspeksiya tomonidan xavf-xatarlarni baholash amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi axborot, shu jumladan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirgan va o‘zlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar matriksasini yangilagan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida ko‘rsatish kerak;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirmagan hududiy va tarkibiy bo‘linmalari soni viloyatlar, Inspeksianing hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida

¹Ushbu bo‘limda va keyingi o‘rinlarda hisobotning har bir bo‘limi bo‘yicha quyidagilarni ko‘rsatish kerak:

- Birlashgan ko‘rimishda markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida hisobot davri uchun ma’lumotlar. Agar zaruriyat bo‘lsa, alohida bo‘linmalar va ular bo‘yicha ma’lumotlarni ko‘rsatish;
- Zaruriyat tug‘ilganda avvalgi davrlar ko‘rsatkichlari bilan solishtirma tahlil o‘tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik\erishmaganlik sabablarini ko‘rsatish lozim.

² Bo‘lim faqat har yillik hisobot davrida to‘ldiriladi. Mazkur bo‘limda Tashkilot tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarni baholashni o‘tkazish uslubiyotiga muvofiq amalga oshirilgan xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tahliliy axborot aks ettiriladi.

ko‘rsatiladi, shuningdek, hisobotga ilovada ularning nomi va ularning bajarilmaganligi sabablari qisqacha ko‘rsatiladi;

Baholash jarayonida yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida ko‘rsatiladi. Shuningdek, hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo‘yicha taklif etilgan va amalga oshirilgan tadbirlar qayd etiladi;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo‘yicha nisbati (yuqori, o‘rta, past) hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida ko‘rsatiladi;

Hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida Inspeksiya uchun yuqori bo‘lgan qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar, shuningdek, ko‘rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun taklif etilayotgan tadbirlarni ko‘rsatish lozim (mavjud bo‘lgan taqdirda).

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

Manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalangan va tartibga solingan holatlari soni, shu jumladan, ishga qabul qilish, har yillik deklaratsiyalash jarayonida³ (mavjud bo‘lgan taqdirda), markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida ko‘rsatiladi;

Inspeksiyada manfaatlar to‘qnashuvini markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida manfaatlar to‘qnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillaridan o‘tgan xodimlarning umumiyligi xodimlar soniga foizlardagi nisbati, shuningdek, deklaratsiyalangan va tartibga solingan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari qayd etiladi;

Inspeksiya bo‘yicha rejalshtirilgan manfaatlar to‘qnashuvining har yillik deklaratsiyalanadigan manfaatlar to‘qnashuviga nisbatan ko‘rsatkichlari bajarilmagan hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida tahliliy ma’lumotlarni keltirish kerak (masalan, manfaatlar to‘qnashuvini barcha rahbarlar deklaratsiyalashi lozim, amalda esa faqat 50 foizgina rahbar buni bajargan);⁴

Hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida Inspeksiya tizimida aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi va qabul qilingan choralar bo‘yicha, shu jumladan, umumiyligi soni va toifalar kesimida (*masalan, xarid protseduralaridagi, ish bo‘yicha bevosita bo‘ysunish natijasida va shu kabilarda*) tahliliy ma’lumotlarni keltirish lozim.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Inspeksiya sharnomalariga kiritish

³ Manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish hisobot davrida bajarilgan bo‘lsagina axborot to‘ldiriladi.

⁴ Axborot faqat yillik hisobotda to‘ldiriladi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Inspeksiyaning xo‘jalik shartnomalariga (shartnomalarning foizli nisbati) kiritish bo‘yicha, shu jumladan markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimidagi kontragentlar tahririda tahliliy ma’lumotlarni keltirish, kontragentlarning korrupsiyaga qarshi qoidalarni shartnomalarga kiritishni rad etish sabablarini ko‘rsatish;

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida Inspeksiya tizimida kontragent tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalalar buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni ko‘rsatish.

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida kontragentlar bo‘yicha o‘tkazilgan tekshiruvlar soni, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida ko‘rsatiladi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida Inspeksiya tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar sonini ko‘rsatiladi.

V. Ta’lim va kommunikatsiya

Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishning natijalarini markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida: o‘qitilgan xodimlarning foizdagi nisbati, ta’lim shakli (bevosita/onlayn) ko‘rsatiladi;

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida Inspeksiya tizimi bo‘yicha o‘qitish darajasi past bo‘lgan korrupsiyaga qarshi ko‘nikmalarga oid axborot ko‘rsatiladi (rejalashtirilgan ko‘rsatkichlarga taqqoslangan holda);

Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha kommunikatsiya turlari va sonini hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida (masalan, tarqatmalar, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazish) ko‘rsatiladi;

Bo‘limda shuningdek, Inspeksiya tizimida o‘tkazilgan keng ko‘lamli alohida tadbirlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlari va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida ko‘rsatiladi;

Mansab vazifalari va tartib-taomillar kesimida olingan tahliliy ma’lumotlar (masalan, xaridlar jarayonida, kadrlarni ishga qabul qilish bilan bog‘liq tartib-taomillarda) keltiriladi;

Olingan xabarlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar qoidabuzarliklar kesimida keltiriladi (masalan, korrupsiyaviy xatti-harakatlar, manfaatlar to‘qnashuvi, kelishuv tartib-taomillarini protseduralarini buzish va boshqalar);

Olingan xabarlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar aloqa kanallari kesimida keltiriladi (masalan, ishonch telefoni, bevosita xabar berish va boshqalar).

VII. Monitoring va nazorat⁵

Markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida hisobot davrida Inspeksiya tizimi tomonidan mavjud korrupsiyaga qarshi talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillarning bajarilgani to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar keltiriladi, shu jumladan, tekshiruvlar o‘tkazilgan Inspeksiyalar soni, shuningdek, tekshiruv o‘tkazilgan vazifalar va tartib-taomillarining davriyligi va xarakteri to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar (rejadagi, rejadan tashqari) ko‘rsatiladi;

Hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida tekshiruvlar o‘tkazilmagan bo‘linmalar soni alohida ko‘rsatiladi, ilovada ularning nomi hamda tekshiruvlar o‘tkazilmaganligining asosiy sabablari qischacha qayd etiladi;

O‘tkazilgan tekshiruvlar natijalari to‘g‘risidagi umumiyligi axborot ko‘rsatiladi shu jumladan, ijobiy va salbiy xulosalarning foizlardagi nisbati qayd etiladi. Qoidabuzarliklar mavjud bo‘lsa, mazkur hisobotning VIII-bo‘limiga havola beriladi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralar

Inspeksiyada korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi talablarining buzilganligi to‘g‘risida markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida tahliliy ma’lumotlarni ko‘rsatiladi, shu jumladan:

qoidabuzarliklarning umumiyligi soni;

qoidabuzarliklarning qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi axborot manbalari bo‘yicha tuzilmasi (“ishonch telefoni”, bevosita xabar berish, monitoring va nazorat natijalari va boshqalar);

Inspeksiya ichki hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalar va tartib-taomillar bo‘yicha (xaridlar, kadrlarga oid masalalar va boshq.) qoidabuzarliklar tuzilmasi;

Inspeksiyada qabul qilingan ta’sir choralar to‘g‘risida tahliliy ma’lumotlarni hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida ko‘rsatish, shu jumladan:

o‘tkazilgan umumiyligi tadbirlar soni va aniqlangan barcha qoidabuzarliklar bo‘yicha ta’sir choralar ko‘rilganligi yoki ko‘rilmaganligi;

ta’sir choralar turlari bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar (aybdorlarni javobgarlikka tortish, shu jumladan, javobgarlik turlari kesimida; Inspeksiya tizimi jarayon va ichki

⁵ Tashkilotda hisobot davrida Korrupsiyaga qarshi protseduralariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish metodikasiga muvofiq o‘tkazilgan tadbirlar yakunlari bo‘yicha umumiyligi tahliliy axborot aks ettiriladi.

hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish va boshqalar), shu jumladan, zarur bo‘lgan holda qoidabuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qanday tadbirlarni tatbiq etish taklif etilmoqda va hisobot davrida qanday tadbirlar tatbiq etilganligi ko‘rsatiladi.

IX. Xulosalar

Inspeksiya tizimida hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalari ko‘rsatiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatiga umumiylaho beriladi. Zaruriyatga ko‘ra avvalgi davrlardagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslama tahlil o‘tkaziladi, qoniqarli natjalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini qayd etiladi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Keyingi hisobot davrida Inspeksiya tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining alohida ko‘rsatkichlarni markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlar ko‘rsatiladi.

“Suvxo ‘jaliknazorat’ inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizomiga
3-ilova

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi **HISOBOT**